# TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNI KESH MENEJMENT MEXANIZMI ORQALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Atajanov Baxrombek Utkirovich**
Xorazm viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
e-mail: bahrombek.a888@icloud.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarni KESh menejment mexanizmi orqali rivojlantirish yo'llari tadqiq qilingan. Shuningdek, ta'lim sohasi subyektlarni KESh menejment mexanizmi orqali samarali rivojlantirish yuzasidan xulosa keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются способы развития организаций, предоставляющих образовательные услуги, посредством механизма управления КЭШ (Кедрально-образовательная система). Также делается вывод об эффективном развитии организаций в сфере образования посредством механизма управления КЭШ.

**Abstract.** This article examines the ways of developing entities providing educational services through the KESH management mechanism. Also, a conclusion is made on the effective development of entities in the field of education through the KESH management mechanism.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, xizmat, ta'lim xizmati subyekt, menejment, KESh menejment, mexanizm.

**Ключевые слова.** Образование, услуга, организация, предоставляющая образовательные услуги, управление, механизм управления КЭШ.

**Key words.** Education, service, educational service entity, management, KESH management, mechanism.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasi inson kapitalini shakllantirish, mehnat bozorining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Ta'lim xizmatlari bozorida davlat ta'lim muassasalari bilan birga nodavlat maktablar, oliy ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim muassasalari, o'quv markazlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tashkilotlari hamda raqamli ta'lim platformalarining faoliyati kengayib bormoqda. Mazkur subyektlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, boshqaruvning turli zamonaviy usullarini joriy etish va iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Bu bo'yicha ayrim manbalarda oliy ta'lim xizmatlarida TQM, Kaizen, Six Sigma, Lean va Lean Six Sigma kabi sifat menejmenti yondashuvlari tahlil qilingan [1].

Ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarni rivojlantirishda KESh menejment mexanizmidan foydalanish boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirish va ta'lim xizmatining yakuniy natijadorligini oshirish uchun qo'llaniladi. KESh menejmentini ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarda kadrlar, iqtisodiy, strategik va xizmat sifatini boshqarishning o'zaro bog'langan mexanizmi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvda ta'lim tashkilotining moliyaviy imkoniyatlari, inson resurslari, ta'lim texnologiyalari, mijozlar ehtiyoji, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish tizim sifatida qaraladi. Bu borada ta'lim xizmatlari sifatining asosiy komponentlarini aniqlash, ularni boshqarish hamda uzluksiz takomillashtirish masalalari muhim o'rin tutadi [2].

Ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning sifati faqat moddiy resurslar bilan emas, ya'ni pedagoglar malakasi, ta'lim jarayonining tashkil etilishi, zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning qoniqish darajasi va yakuniy natijalar orqali belgilanadi. Shu bois, ta'lim tashkilotini boshqarishda an'anaviy ma'muriy yondashuvdan natijaga yo'naltirilgan menejment tizimiga o'tish zarur hisoblanadi. Unga ko'ra, ta'lim xizmatlari sifatini baholashning integral



© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

modeli taklif etilib, xizmat sifati, qoniqish va ta’lim xizmatlarini boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi [3]. Shularga muvofiq, ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarni KESh menejment mexanizmi orqali rivojlantirish yo‘llari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

birinchidan, KESh menejment mexanizmining kadrlar salohiyatini boshqarish yo‘nalishini takomillashtirish. Ta’lim xizmatlarining sifati bevosita pedagog va boshqaruv xodimlarining professional kompetensiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, ta’lim tashkilotlarida xodimlarni tanlash, joylashtirish, baholash va rivojlantirishning yagona tizimini yaratish zarur. Bunda pedagoglarning akademik bilimlari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, interaktiv metodlarni qo‘llash, xorijiy tajribani o‘zlashtirish va ta’lim oluvchilar bilan samarali kommunikatsiya qilish qobiliyatlari baholanishi kerak.

ikkinchidan, iqtisodiy va moliyaviy menejmentni takomillashtirish. Ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektning barqaror faoliyat yuritishi uning moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liq. Ta’lim tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsion loyihalarni baholash va moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Bunda nodavlat ta’lim tashkilotlari uchun ta’lim xizmatlari portfelini kengaytirish, qo‘shimcha kurslar tashkil etish, korporativ ta’lim xizmatlarini taklif etish va onlayn ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantiradi.

uchinchidan, strategik menejmentni rivojlantirish. Ta’lim tashkilotlari bozor sharoitida faqat joriy faoliyatni tashkil etish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular o‘zining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga ega bo‘lishi zarur. Strategik menejment doirasida ta’lim xizmatlari bozorining holati, raqobatchilar faoliyati, iste’molchilar talabi, demografik o‘zgarishlar, mehnat bozori ehtiyojlari va texnologik tendensiyalar muntazam tahlil qilinishi lozim. Bu borada ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar uchun strategik rejalashtirishda SWOT, PEST va benchmarketing kabi tahlil vositalaridan ham foydalaniladi.

to‘rtinchidan, ta’lim xizmatlari sifatini boshqarish. Ta’lim xizmatining sifati iste’molchi, ya’ni ta’lim oluvchi va uning ota-onasi, ish beruvchi yoki boshqa manfaatdor tomonlarning kutishlari bilan bog‘liq. Shu sababli, ta’lim tashkilotlarida muntazam ravishda qoniqish darajasini o‘rganish tizimini joriy etish zarur. Bunda so‘rovnomalar, elektron fikr-mulohazalar, intervyular va ta’lim natijalarini baholash vositalaridan foydalanish mumkin. Unga ko‘ra, ta’lim sifatini baholashda faqat o‘quv jarayonining o‘zi emas, ya’ni ta’lim xizmatining to‘liq sikli hisobga olinishi kerak. Bu yondashuv ta’lim xizmatlari iste’molchilarining sodiqligini oshirishga imkon beradi.

beshinchidan, KESh menejment mexanizmini rivojlantirishni raqamlashtirish. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etish bilan birgalikda boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Ta’lim tashkilotlarida elektron boshqaruv tizimlari, LMS platformalari, CRM tizimlari, elektron jurnal va reyting tizimlari, masofaviy ta’lim vositalari hamda analitik platformalardan foydalanish kengaytirilishi kerak. Ushbu raqamli boshqaruv orqali ta’lim oluvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish, ularning davomati, o‘zlashtirishi, qiziqishlari va ta’limdagi natijalarini monitoring qilish mumkin. Mazkur ma’lumotlardan foydalanish individual ta’lim trayektoriyalarini sifatli qilib shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa shuki, ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlarni KESh menejment mexanizmi orqali rivojlantirish ta’lim tashkilotlarining boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash va bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Uning samarali ishlashi esa ta’lim xizmatlari sifatining oshishi, ta’lim oluvchilar qoniqishining kuchayishi, xodimlar motivatsiyasining ortishi, moliyaviy


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

barqarorlikning ta’minlanishi, ta’lim tashkilotining hududiy va milliy ta’lim xizmatlari bozoridagi mavqeining mustahkamlanishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sunder, M.V. (2016). Constructs of quality in higher education services. // International Journal of Productivity and Performance Management, Vol. 65, No. 8. - pp. 1091-1111. DOI: 10.1108/IJPPM-05-2015-0079.
2. Medinschi, S., & Kysilka, D. (2011). Managing the Quality Components of Higher Education Services. // Anale. Seria Ştiinţe Economice. Timişoara, Vol. XVII, No. 17. - pp. 232-239.
3. Ahmady, S., Yazdani, S., Hosseini, M.A., & Rokhafroz, D. (2019). An Integrated Model of Educational Services Quality. // Journal of Research in Medical and Dental Science, Vol. 7, No. 1. - pp. 7-13.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.